

**O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" ASARINING
TAHLILIY XUSUSIYATLARI**

To'rayeva Laylo Elmurod qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari

va huquq ta'limi yo'nalishi

2-kurs talabasi

Elektron pochta: turayevalaylo294@gmail.com

Annotatsiya: O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" asari detektiv voqealar asosida kechadi. Ushbu asarni yuridik, ma'naviy va filolog jihatdan tahlil qilishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, uzuk, gazeta parchasi, jinoyat ishining ochilishi, jinoyatchini topish.

**АНАЛИТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ
УЛМАСА УМАРБЕКОВА «ЛЕТНИЙ ДОЖДЬ»**

Тураева Лайло Элмурод кизи

Национальный университет Узбекистана

Национальная идея, основы духовности

и юридическое образование

студент 2 курса

Электронная почта: turayevalaylo294@gmail.com

Аннотация: Роман «Летний дождь» Олмаса Умарбекова написан в детективном жанре и описывает развитие загадочных событий., роман может быть проанализирован с юридической, нравственной и филологической точек зрения.

Ключевые слова: семейные отношения, кольцо, газетный отрывок, раскрытие преступления, поиск преступника.

**ANALYTICAL FEATURES OF OLMAS UMARBEOV'S WORK
"SUMMER RAIN"**

Turayeva Laylo Elmurod qizi

National University of Uzbekistan
National idea, Fundamentals of Spirituality
and Legal Education
2nd year student

Email: turayevalaylo294@gmail.com

Annotation: *The novel "Summer Rain" by Olmas Umarbekov is written in the detective genre and depicts the development of mysterious events. It also deeply explores family relationships, life challenges, and human values.*

Keywords: *family relationships, ring, newspaper fragment, crime investigation, finding the criminal.*

Avvalo, asarni tahlil qilishdan oldin adibning hayotiga ozgina to'xtalib o'tmoqchiman. Bu esa asarning tahlilini muallif tomonidan ko'zlangan xususiyatlarini aniqlashimiz uchun yordam beradi. O'lmas Umarbekov 1934-yilning 25-yanvarida Toshkent shahrida tug'ilgan. Adib badiiy ijodni hikoyachilikdan boshlagan. Uning birinchi hikoyasi "Xatingni kutaman" deb nomlangan. Yozuvchining hikoyalaridagi qahramonlar – oddiy odamlar. Uning "Odam bo'lish qiyin", "Fotima va Zuhra" kabi romanlari mavjud. "Odam bo'lish qiyin" romanini o'qib shunday xulosaga kelganman, xuddi adib yozganidek, "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin". Adib detektiv yo'nalishda ham o'zini sinab ko'radi. "Yoz yomg'iri" asari boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. "Yoz yomg'iri" qissasi sujet to'qimasining murakkabligi, voqealar ta'sirining favqulodda keskinligi, ifoda maromining shiddatkorligi bilan e'tiborni tortadi.

Asardagi voqealar shunday yoritilgan. Asar tramvay haydovchi bir qizning mehnat faoliyati bilan boshlangan. Voqealar rivoji Chorsu atrofida bo'lib o'tadi. Munira Shayxuddinovanning tramvayiga temiryo'lcilar kiyimidagi bir yo'lovchi chiqadi. Ular shu chog'da butalar orasida oppoq tuflisining uchi osmonga qaragan

bir ayolni ko'radilar. Dastlab uni mast deb o'ylashadi, ammo u o'ldirib ketilgandi. Tegishli idoralarga xabar berishadi. Muniraning hikoyasi shu joyda to'xtab, asarning bosh qahramonlari Rahim Saidov va Munisxon Saidovanning hayot tarzi davom ettiriladi.

Ular Toshkentda o'qishardi va bir-biri bilan tanishishlariga ham o'qishga ketayotganligi sabab bo'ladi. Ularning munosabati jiddiy tus olib, oila qurishadi. Xalqimizda ko'p uchraydigan "Er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi", "Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi" kabi maqollar ushbu asardagi oilaviy nizolarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Munisxon kiyim-kechakni, zeb-u ziynatni sevuvchi ayol sifatida tasvirlangan. Ularning oilasidagi nizolar ko'pincha shuning ortidan kelib chiqardi. Rahim Saidov paxta hosilining eng dahshatlisi-viltga qarshi preparat ustida ishlar va oilasiga e'tiborni kamroq qaratar edi. Rahim Saidov bir kuni shunday tush ko'rdi. Xotining qo'lga begona erkak uzuk taqyapti. Xotining qo'lidan yoqut ko'zli tilla uzukni sug'urmoqchi bo'ladi, ammo uzuk chiqmaydi. Munisxon o'sha begona erkak bilan ketib qoladi. Uyg'onib qarasa, tushda ko'rilgan uzuk xotining qo'lida o'ynardi. Jahli chiqib, uning qo'lidan sug'urmoqchi bo'lganda uzuk chiqmaydi. Munisxon buning oddiy jezdan ekanligini aytadi. U eriga shunaqa uzuk olib bering deb turib oladi va o'rtada janjal kelib chiqadi. Munisxon onasining uyiga ketmoqchiligini va qaytib kelmasligini aytadi. Rahim Saidov ishga ketadi. Ishdan chiqqach xotinini xursand qilish uchun o'sha uzukni olmoqchi bo'ladi, ammo unda uzukning narxichalik puli yo'q edi. Uyga qaytib borgach qarasa xotini yo'q. Xavotir olib uni hamma joydan surishtiradi, ammo undan darak yo'q.

Munisxonni qidirish jarayonidagi voqealarni yuridik jihatdan ko'rib chiqishimiz mumkin. Chunki bir jinoyat ishi ochilmoqda. Jinoyat ishini ochishga kapitan Sobir Aliyev boshchilik qiladi. Har bir kerakli ma'lumotlarni yig'ish uchun alohida kishilar tayinlanadi. Masalan, leytenant Sultonov Munisxon qayerda yashashi va kim bilan turishi to'g'risida ma'lumot yig'adi. Kapitan G'ulomov esa Munisxonning qachon joni uzilgani, qayeridan jarohat olgani, qay tarzda o'ldirilgani va vafotidan oldin nima iste'mol qilgani haqida ma'lumot to'playdi. Rahim Saidovning jinoyat sodir etilgan kecha qayerda bo'lganligi xususida leytenant Qodirov shug'ullanadi. Bundan tashqari, Munisxonning yonidan chiqqan har bir buyumni o'rganish uchun Ro'ziyev tayinlangan edi.

Tramvaychi qiz bilan ham bo'lgan voqealarni so'roq qilishadi va har bir aytilgan gaplari qog'ozga tushiriladi. Kapitan Aliyev jinoyat sodir etilgan joyga boradi. Bu yerda ko'chani tozalovchi bir ayol bilan tanishib qoladi. Unga Munisxonning suratini ko'rsatadi, boshida tanimaydi keyin uning Samarqand darvoza tarafga kirib ketishini aytadi. Munisxonning ma'rakasi o'tgandan so'ng Rahim Saidov ham so'roq qilinadi. Munisxonning yonidan chiqqan barcha buyumlarni unga berishadi, lekin ba'zilar u uchun notanish edi. Bir kuni Munisxon uyiga kech qaytadi. Rahim Saidov derazadan qarab turganda u begona erkakning mashinasidan tushib keladi. Xonaga kiringach u olgan kiyimlarini eriga maqtanadi. Rahim Saidov unga kiyimlari yarashganini aytganda u; "Anatoliy Nazarovich ham shunday degan edi",-deydi.

Kapitan Aliyev Anatoliy Nazarovichni ham nazardan chetda qoldirmay u haqida ham ma'lumotlar to'planishini buyuradi. Uning ma'lumotlari shunday edi. O'n oltiyu qirq to'rtinchi uyda turuvchi odam ham, "Gulchehra" tayyor kiyimlar

do'konining sotuvchi ham bir odam edi; "Anatoliy Nazarovich Olloyorov". Olloyorovni so'roq qilishdan oldin qorovul ayolga uning suratini ko'rsatishni ma'qul ko'radi, balki qora portfel ko'targan shaxs shudir. Qorovul ayolga uning suratini ko'rsatishganda, bu xuddi uning o'zi ekanligini aytadi. Ertasi kuni uni s'roq qilishadi, ammo pichoqqa ilingulik dalillar yig'ilmaydi. Kapitan uning uyiga ham borib ko'rdi. Uning xonasidagi kitoblarni ko'rgach, gazeta o'qishi yoki o'qimasligini ham so'rab bildi. U gazeta o'qib turishini va barcha sonlarini yig'ib yurishini aytgach, kapitan o'sha gazetalarni olib kelishini so'radi. Kapitan gazetalarni varoqlay boshladi, 19-avgust soniga kelganda uning yuragi tez ura boshladi.

20-avgust! Tezda Olloyorovga qarab olgach keyingi sonini ochdi.

21-avgust ham bor edi. Birinchi betning o'ng tomonidagi tepa burchak yo'q. Bu o'sha uzuk o'ralgan gazeta parchasi edi. Kapitan gazeta bo'lagini yon cho'ntagidan chiqarib, o'sha yo'q joyga qo'yib isbotlagach, u Munisxonga turli kiyim-kechaklar sovg'a qilishini va o'sha uzukni gazetaga o'rab berganini aytadi. Nima sababdan bunday sovg'alar berganini so'raganda uni yoqtirib qolganini, niyati jiddiyligini Munisxonga aytganda u ko'nmaganligini aytadi. Keyinchalik eri uyida yo'q paytlari uning uyiga kelib turishini, hattoki o'sha kecha ham shu yerda bo'lganligini aytadi. Munisxon uyiga ketgach, Olloyorov "Urush va tinchlik" kinosini ko'rganini aytadi. Kapitan o'sha kuni kechki soat 21:00 dan 24:00 gacha televizorda berilgan barcha kinofilmlar to'g'risida ma'lumot yig'ilishini aytadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Olloyorov aytgan kino bermagan. Shu joyda kapitanga qotil kimligi ma'lum bo'lgach, uning uyida tintuv qilish uchun order taxlandi. Ertasi kuni tintuv olib borilayotganda, uning ko'zi ojiz onasi hovlining o'rtasiga tushib,

olcha daraxtining tagiga ko'milgan pichoqni olib kelib beradi. Nega o'ldirganini so'rashganda:

- Erining ixtirosini olib kelishdan bosh tortdi. Keyin Sizlarga xabar bermoqchi bo'ldi.

Aliyevning tasmoli to'g'ri chiqdi. Munisxon erining ixtirosi uchun shahid ketgan. Har holda, vijdoni bor ekan. Yengiltaklik qilibdi-yu, sotqinlik qilmabdi.

Oila jamiyatning bir bo'g'ini hisoblanadi. Oila ikki shaxsning o'zaro ixtiyoriy erkinligi natijasida quriladi. Oila to'g'risida adibimiz Abdulla Avloniyning "Oila-tarbiya bog'idir. Bu bog'da qanday gul ekilsa, shunday meva olinadi", -degan so'zlari oiladagi tarbiyaning ahamiyatini anglatadi. Asarda Munisxonning onasi "Pul desa o'zini tomdan tashlaydigan xotin" deb tasvirlangan. Balki, Munisxonning kiyim-kechakka va zeb-u ziynatga o'chligi shuning natijasidir. Oilada bitta farzand bo'lgani uchun erka o'sgan va aytgani aytgan, degani degan bo'lgan deb hisoblayman.

Asar boshida aytib o'tganimdek, "Er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi" degan chuqur ma'no-mazmunga ega maqol orqali butun bir asarning mohiyati ochib berilgan. Ya'ni, odatiy ahvolga aylanib qolgan urush-janjalni tasvirlashda to'g'ri foydalanilgan. Munisxonning eriga xiyonat qilganini o'qib, unga nisbatan menda qandaydir nafrat hissi uyg'ongandi. "Ayolni yo'qchilik, erkakni to'qchilik buzadi",- degan so'zlarni ko'p eshitganmiz. Lekin Munisxonga nima kerak bo'lsa, Rahim Saidov uni muhayyo qilar edi. Munisxonga bir narsa yetishmas edi "Boriga shukr, yo'g'iga sabr qilish". Rahim Saidov Munisxon uchun barcha sharoitni yaratib berishga harakat qilar edi, lekin u bundan qanoatlanmas edi. Uni zeb-u ziynatga, kiyim-kechakka o'chlik buzdi. Olloyorov uning fe'l-

atvorini yaxshi bilib olgan edi va unga sovg'a-salomlar berish orqali ko'nglidan joy olishga muvaffaq bo'ldi. Uning niyati rostdan jiddiy ekanda deb o'ylaymiz, ammo bunday bo'lib chiqmadi. Munisxonni ilintirish orqali uning eri ishlab chiqayotgan preparatni unga olib kelishi uchun undan foydalanayotgan edi. Olloyorovning onasini ko'zi ko'r bo'lsa ham qalbi ko'r emas ekan. Jinoyat ishi yopilishida oxirgi nuqtani qo'ygan inson sifatida ko'rishimiz mumkin. Garchi asar Munira Shayxuddinova haqida bo'lmasa ham, uning inson hayotiga befarq emasligi va asarning davomiyligini ta'minlashda o'z o'rni bor. Munisxon nima bo'lganda ham erining topganiga qanoat qilishi kerak edi. Begona erkak borki, o'zining eri singari bo'la olmaydi. Xuddi Olloyorov singari o'zining manfaati yo'lida foydalanadi. Ma'naviy jihatdan tahlil qilganda shu kabi fikrlarimni keltirib o'tishim mumkin. Asarning boshlanishi tramvaychi qiz bilan boshlanganini aytib o'tgandim. Bir qarashda demak, shu qiz haqida borar ekanda deb o'ylaganman, ammo asardagi asosiy rol Rahim Saidov va Munisxonning hayotiy kechinmalari va oilaviy mojarolari haqida ekan.

Asarda o'zbek tilining uslublaridan keng foydalanilgan. Masalan, Rahim Saidov va Munisxonning tanishuvi, qolaversa, har galgi uchrashuvlar, shu bilan birga uning jasadi topilgan joylarni va Munisxonning ahvolini tasvirlashda badiiy uslubdan keng foydalanilgan. Insonning xayolida bo'layotgan voqealarni gavdalantirish uchun shu darajada tasvirlanganki, men o'zimni o'sha yerda bordek his qilganman. Rahim Saidov paxta hosilining nobud bo'lishiga yo'l qo'ymasligi va shu bilan birgalikda yangi preparat ishlab chiqqanligi fanning rivoji uchun muhim o'rin tutishini aytib o'tishim mumkin. Bu ilmiy uslubning bir ko'rinishi hisoblanadi. Publitsistik uslub esa bu asarda turli ijtimoiy, siyosiy voqealarning

rivojida muhim rol o'ynaydi. Asar tramvaychi qizning mehnat faoliyati bilan boshlanib, oxiri bir insonning hayoti yakunlanishini tasvirlashda foydalanilgan. Asardagi voqeliklar bir-birini taqozo etmaydi. Jinoyat izlarini topish, jinoyatchining uyini tintuv qilish uchun tayyorlangan order hamda yig'ilgan barcha hujjatlar rasmiy uslubda yozilgan. Hakima opaning Munisxonning o'ldirib ketilganini eshitgach, unga qayg'urib "Voy bolem", -deb yig'lashlari so'zlashuv uslubining bir ko'rinishidir.

Adibning mahorati shu darajada kuchli ekanki, tushda ko'rilgan birgina uzuk orqali butun bir asarning yakunlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Nega "Yoz yomg'iri" deb nomlangan degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Asarni o'qib tugatgach, ushbu asarning nomlanishini quyidagicha keltirib o'tmoqchiman. Yomg'ir yog'ganda topilgan baxt yozda kuz bargidek xazon bo'lganini, ya'ni, ularning yomg'ir yog'gan paytda bir-birini topishi, muqaddas sanalmish oila qurmoqligi, keyinchalik esa yozda umri zavol bo'lgan ayol qismati va 21-avgust mudhish kun sifatida xotiralarga muhrlanib qolganligi. Rahim Saidov yomg'irda topgan baxtini yozda yo'qotgani, uning uchun o'sha baxt mana shu yerda to'xtagani mening fikrimcha asarning shunday nomlanishiga sabab bo'lgan.

Ushbu asardan kelib chiqqan xulosam shundan iboratki, **Birinchidan**, bu asarda ozgina mavhumlik mavjud deb o'ylayman. Chunki asar boshlanishi tramvaychi qiz bilan boshlanib, Munisxonning o'limi bilan tugaydi. Shunday bo'lishiga qaramay adib sevgi, muhabbatga oid asardan tashqari detektiv yo'nalishda asar yozish uchun o'z qalamini sinab ko'rgan. **Ikkinchidan**, har bir inson oila sanalmish muqaddas dargohning qadriga yetishi, ayol kishining eri topadigan daromadidan manfaatdor bo'lishi zarur. Asarda keltirilganidek,

Munisxonga o'xshab begona erkakning sovg'a-salomiga uchmoqlikdan va ularning ayol qalbidan joy olmog'iga yo'l qo'ymasligi shart va zarur. "Begona erkak bilan yurishga yuribdi-yu, eri ishlab chiqayotgan preparatni sotmabdi" kabi jumlar insonni ta'sirlantirishiga hech shubham yo'q. Boshida Munisxonning eriga qilgan xiyonati uchun unga nisbatan nafrat hissi bor edi, ammo asar yakunida uning ahvoliga achindim. **Uchinchidan**, ushbu asar orqali hech bir jinoyat jazosiz qolmasligi yana bir bor isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov, "Adabiyot" Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent – 2017.
2. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri (Qissa). – Turon Zamin nashriyoti, Toshkent – 2023.